



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASI
B U Y R Í G'I**

2023-jil 11-Yanvar

№11

Nókis qalasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
2022-yil 30-dekabrda 362-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 dekabrda 736-F-son faomoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 dekabrda 736-F-son farmoyishi hamda Agentlikning 2022 yil 30 dekabrda 362-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 dekabrda 736-F-son farmoyishida:

-Mudofaa vazirligiga tegishli bo‘lgan ko‘p kvartirali uylardagi xonadonlarni (keyingi o‘rinlarda-ob‘ektlar) mahalliy davlat hokimiyati organlariga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berish nazarda tutilganligi;

-Mudofaa vazirligiga tegishli bo‘lgan ko‘p kvartirali uylardagi xonadonlarni hususiyashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmaning Davlat aktivlarini reestrini yuritish bo‘limi boshlig‘i (Nietova):

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 dekabrda 736-F-son farmoyishi 1-ilovasida ko‘rsatilgan ob‘ektlarni belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga topshirish-qabul qilish dalolatnomalari rasmiyashtirilgan holda o‘tkazish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilishini ta‘minlasin.

4. Boshqarmaning Murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi (E.Jiemuratova) mazkur buyruq nusxasini Davlat aktivlarini reestrini yuritish bo‘limiga yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig‘i



M.Radjapov